




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

2021- yilning yanvar- sentabr oylarida 11 730,4 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 84,7 %ni tashkil etdi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 7 %ni tashkil etib, 817,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 10 912,6 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 93,0 % investitsiyalari o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,7 %ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, ulushi % da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, ulishi % da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1 711,2 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,7 %ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,8 %i yoki 959,3 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 7 047,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,3 %ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd. so'm



Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'larini hisobidan 1 194,6 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,9 %ini), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 100,3 mlrd. so'm (0,9 %), Respublika budjeti 587,6 mlrd. so'm (5,0 %), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 62,2 mlrd. so'm (0,5 %) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'larida kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 425,7 %ga, Respublika budjeti tomonidan esa 270,0 %ga o'sdi.

*Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,3 %ni tashkil etib, **"Hydrogen Energy" MChJ qo'shma korxonasi** tomonidan peroksid vodorod ishlab chiqarishni tashkil etish va **"Gazgan Stone Invest" MCHJ qo'shma korxonasi** tomonidan esa marmar qazib olish va qayta ishlashni tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o'zlashtirilgani bilan bog'liq.*



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan % da):						
		Respublika budjeti	Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa qarzi mablag'lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Navoiy viloyati:	11 730,4	5,0	14,6	8,2	60,9	0,5	10,2	0,6
<i>shaharlar:</i>								
Navoiy sh.	2 618,6	11,7	34,3	7,6	32,7	0,3	10,8	2,6
Zarafshon sh.	1 349,7	1,6	4,0	3,1	89,4	0,6	1,3	-
G'ozg'on sh.	55,2	20,0	11,5	-	55,4	13,1	-	-
<i>Tumanlar:</i>								
Karmana	1 641,9	2,1	20,1	8,7	60,8	0,2	8,1	-
Konimex	1 213,3	1,6	8,3	1,0	86,5	0,3	2,3	-
Qiziltepa	464,0	8,1	18,2	25,1	18,9	0,8	28,9	-
Navbahor	251,4	7,1	17,2	44,2	20,4	0,5	10,6	-
Nurota	341,3	13,4	16,7	35,1	21,2	3,3	10,3	-
Tomdi	2 815,3	0,4	1,7	0,2	97,5	0,1	0,1	-
Uchquduq	117,3	13,4	34,9	22,8	16,0	1,6	11,3	-
Xatirchi	862,4	7,8	5,7	21,4	3,3	1,5	60,3	-

*Shahar va tumanlar tomonidan taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	<i>o'sish sur'ati</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>Navoiy viloyatidagi ulushi</i>
Navoiy shahar	57,1 % 	2 618,6 	22,3 %
<i>Navoiy viloyatidagi ulushi</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd so'm</i>	<i>o'sish sur'ati</i>	Zarafshon shahar
11,5 % 	1 349,7 	109,0 % 	
G'ozg'on shahar	13,1 m 	55,2 	0,5 %
<i>Navoiy viloyatidagi ulushi</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati</i>	Karmana tumani
14,0 % 	1 641,9 	115,7 % 	
Konimex tumani	107,3 % 	1 213,3 	10,3 %
<i>Navoiy viloyatidagi ulushi</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati</i>	Qiziltepa tumani
4,0 % 	464,0 	72,8 % 	



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Navbahor tumani

o'sish sur'ati

85,3 %




*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

251,4



Navoiy viloyatidagi ulushi

2,1 %



Nurota tumani

o'sish sur'ati

123,1 %




*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

341,3




Navoiy viloyatidagi ulushi

2,9 %



Navoiy viloyatidagi ulushi

24,0 %



*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

2 815,3



o'sish sur'ati

107,4 %



Tomdi tumani

Uchquduq tumani

o'sish sur'ati

12,2 %



*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

117,3




Navoiy viloyatidagi ulushi

1,0 %



Navoiy viloyatidagi ulushi

7,4 %



*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

862,4




o'sish sur'ati

124,8 %



Xatirchi tumani

2021- yil yanvar- sentabr oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da




Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 124,8 %ga o'sib, Xatirchi tumanida kuzatildi. Bu asosan "XATIRCHI TOMATO" MChJ va "XATIRCHI TEXTILE" MChJ: zamonaviy issiqxona tashkil etish va Ip kalava, mato va bo'yalgan mato ishlab chiqarish bilan bog'liq.

Shuningdek, Nurota tumanida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,1 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "BESTERSTEIN GROUP" MChJ QK tomonidan Marmar, granit toshlarni qazib olish va qayta ishlashni tashkil etish va "AZIA BAZALT" MChJ -Bazalt toshini qazib olish va birlamchi qayta ishlashni tashkil etish bilan izohlash mumkin.

Viloyatda investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan Tomdi tumani (24,0 %), Navoiy shahri (22,3 %), hamda Karmana tumani (14,0 %) ushbu tuman va shaharlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmi o'sish sur'atining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

*Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan
investitsiyalarning texnologik tarkibi,
(% da)*



Navoiy viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 7 214,3 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 61,5 %ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 4 212,8 mlrd. so'm (35,9 %) va boshqa xarajatlarga 303,3 mlrd. so'm (2,6 %) o'zlashtirildi.

Shahar tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida kuzatildi – 11,5 % yoki 1 350,3 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja G'azg'on shahrida kuzatilib, 0,2 %ni yoki 24,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Tomdi tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kuzatilib – 19,8 % yoki 2 320,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga
investitsiyalarning takror
ishlab chiqarish tarkibi
(jami hajmdagi ulushi,
% da)**

**Yangi qurilish -
65,6**

**Kengaytirish,
rekonstruksiya,
modernizatsiya - 25,6**

**Boshqa yo'nalishlar -
8,8**

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 7 701,6 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 65,6 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 2 997,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 25,6 %ini tashkil etdi. Qolgan 8,8 % i, ya'ni 1 031,0 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga
investitsiyalarning texnologik tarkibi**

ulushi, % da

	Qurilish montaj ishlari	Mashina, uskuna, inventarlar	Boshqa xarajatlar
<i>Navoiy viloyati</i>	35,9	61,5	2,6
shaharlar:			
<i>Navoiy</i>	51,6	44,7	3,7
<i>Zarafshon</i>	63,2	36,5	0,3
<i>G'ozg'on</i>	43,3	55,7	1,0

tumanlar:			
Karmana	19,1	75,6	5,3
Konimex	21,2	77,3	1,5
Qiziltepa	52,6	45,7	1,7
Navbahor	52,8	30,6	16,6
Nurota	64,3	19,0	16,7
Tomdi	16,9	82,4	0,7
Uchquduq	50,7	46,6	2,7
Xatirchi	32,8	66,8	0,4

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 633,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 65,1 %i o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

- metallurgiya sanoati – 4 402,2 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 37,5 %).

- boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish – 1 635,7 mlrd. so'm (13,9 %).

- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 670,1 mlrd. so'm (5,7 %).


***Xorijiy investitsiyalar o'zlashtirish, kreditlarni qo'shgan holda
(2021- yil yanvar-sentabr)***

	Jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi, mlrd. so'm		shundan: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mlrd. so'm	
	<i>jami</i>	<i>jamiga nisbatan, %da</i>	<i>jami</i>	<i>jamiga nisbatan, %da</i>
Navoiy viloyati	7 047,5	100,0	572,0	100,0
shaharlar:				
Navoiy	821,7	11,7	299,0	52,2
Zarafshon	1 205,5	17,1	1,0	0,2
G'ozg'on	30,4	0,4	30,4	5,3
tumanlar:				
Karmana	973,9	13,8	197,0	34,4
Konimex	1 037,9	14,7	1,4	0,2
Qiziltepa	61,4	0,9	13,8	2,4
Navbahor	49,5	0,7	0,4	0,1
Nurota	72,4	1,0	10,7	1,9
Tomdi	2 746,6	39,0	2,1	0,4
Uchquduq	18,8	0,3	14,9	2,6
Xatirchi	29,5	0,4	1,4	0,3


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 7 047,5 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 100,3 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 76,3 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, %da



**Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan
Investitsiyalar hajmi, (ming so'mda)**



Joriy davrda jami umumiy maydoni 523,7 ming kv.m bo'lgan (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,0 %), 1667 ta yakka tartibdagi turar-joy obyektlari yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 371,8 ming kv.m bo'lgan 1194 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(79) 223-54-73**
(71) 202-85-20